

Yosh tadqiqotchi “Yilning eng yaxshi maqolasi” nominatsiyasi g’olibi bo’ldi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan “Yangi O‘zbekistonning iste’dodli yoshlari” nomli ilmiy to‘plam nashrdan chiqdi. Joriy yil 28-yanvar kuni ushbu kitob to‘plamiga taqdim etilgan maqolalar mualliflarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi. Taqdirlash marosimida Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vaziri hamda “Ulug‘bek jamg‘armasi” raisi va Yoshlar ishlari agentligi rahbari ishtirok etib, mualliflarni taqdirlashdi. Jami 500 ta maqoladan 44 ta maqola ma’qullanib to‘plamda nashr qilingan.

O‘zR FA Zoologiya instituti kichik ilmiy xodimi Muxayyo Atamuratovaning “Tuyabo’g‘iz suv ombori ixtiofaunasining hozirgi holati va baliq resurslaridan oqilona foydalanishning yo‘llari” nomli maqolasi ham ushbu nashrdan o‘rin olgan. Yosh tadqiqotchi Muxayyo Atamuratova “Yilning eng yaxshi maqolasi” nominatsiyasi g’olibi bo’ldi.



M.Atamuratovani ushbu g’oliblik bilan tabriklaymiz hamda kelgusidagi ilmiy ishlarida zafarlar tilaymiz!

